



ISSN: 2181-9416

4-SON, 2026

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
eLIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

4-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА

HOMEPI 4

LAWYER HERALD

ISSUE 4



AZIMOV Azimbek Azizbek o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi
M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyning katta o'qituvchisi,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik
va huquqiy siyosat instituti tayanch doktoranti
ORCID: 0009-0000-0387-4385
E-mail: azimovazimbek25@gmail.com

YOSHLARGA DOIR DAVLAT IJTIMOY FUNKSIYASINI AMALGA OSHIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINING ISHTIROKI

Iqtibos keltirish uchun (для цитирования, for citation): AZIMOV A.A. Yoshlarga doir davlat ijtimoiy funksiyasini amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 4 (2026) B. 8-17.

 4 (2026) DOI <https://doi.org/10.34920/2181-9416/2026/4-001>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada davlat va huquq nazariyasi doirasida davlatning ijtimoiy funksiyasini amalga oshirish va yoshlarning huquqlarini kafolatlash masalasida davlat organlari hamda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) o'rtasidagi hamkorlikning institutsional-huquqiy asoslari tizimli tahlil qilingan. Maqola doirasida O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining evolyutsion taraqqiyoti, xususan, "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatidan boshlab O'zbekiston yoshlar ittifoqi va Yoshlar ishlari agentligigacha bo'lgan institutsional hamda tarkibiy islohotlar ilmiy jihatdan atroflicha baholangan. Shuningdek, maqolada yoshlar tashkilotlarining davlat ijtimoiy siyosatida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, tizimli jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish va samarali ijtimoiy monitoring o'tkazishdagi roli hamda huquqiy maqomi xorijiy ilg'or mamlakatlar tajribasi va milliy qonunchilik normalari prizmasi orqali ochib berilgan. Muallif tomonidan ijtimoiy sheriklik munosabatlarini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida muhim ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirilgan. Xususan, yoshlar hayotiga bevosita daxldor bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini majburiy jamoatchilik ekspertizasidan o'tkazish mexanizmini huquqiy joriy etish, idoralararo ijtimoiy-statistik ma'lumotlar almashinuvini to'liq raqamlashtirish hamda jamoatchilik ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan "yoshlar manfaati yoshlar nigohi bilan" konseptual tamoyiliga tayangan holda qarorlar qabul qilish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha asoslantirilgan qonunchilik takliflari ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: yoshlarga oid davlat siyosati, davlat funksiyasi, ijtimoiy huquqlar, NNT, ijtimoiy sheriklik, jamoatchilik nazorati, institutsional mexanizm, Yoshlar ishlari agentligi, ijtimoiy monitoring, huquqiy kafolat.

АЗИМОВ Азимбек

Старший учитель академического лицея
имени М.С. Восиковой при Ташкентском
государственном юридическом университете,
базовый докторант Института Законодательства и правовой
политики при Президенте Республики Узбекистан
E-mail: azimovazimbek25@gmail.com

УЧАСТИЕ НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОСУЩЕСТВЛЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ФУНКЦИИ ГОСУДАРСТВА В ОТНОШЕНИИ МОЛОДЕЖИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье в рамках теории государства и права систематически анализируются институционально-правовые основы сотрудничества между государственными органами и негосударственными некоммерческими организациями (ННО) в вопросах реализации социальной функции государства и гарантирования прав молодежи. В рамках статьи научно и всесторонне оценивается эволюционное развитие государственной молодежной политики в Узбекистане, в частности, институциональные и структурные реформы, начиная от Общественного движения молодежи «Камолот» до Союза молодежи Узбекистана и Агентства по делам молодежи. Также в статье через призму передового зарубежного опыта и норм национального законодательства раскрываются роль и правовой статус молодежных организаций в обеспечении социальной стабильности в рамках государственной социальной политики, установлении системного общественного контроля и проведении эффективного социального мониторинга. Автором сформулированы важные научно-практические выводы, направленные на выведение отношений социального партнерства на качественно новый уровень. В частности, выдвинуты обоснованные законодательные предложения по правовому внедрению механизма обязательной общественной экспертизы проектов нормативно-правовых актов, непосредственно затрагивающих жизнь молодежи, полной цифровизации межведомственного обмена социально-статистическими данными, а также совершенствованию процессов принятия решений на основе концептуального принципа «интересы молодежи глазами самой молодежи», направленного на усиление общественного участия.

Ключевые слова: государственная молодежная политика, государственная функция, социальные права, ННО, социальное партнерство, общественный контроль, институциональный механизм, Агентство по делам молодежи, социальный мониторинг, правовая гарантия.

AZIMBEK Azimov

Senior teacher at the M.S. Vosiqova Academic
Lyceum under the Tashkent State University of Law,
Doctoral student at the Institute of Legislation and
Legal Policy under the President of the Republic of Uzbekistan
ORCID: 0009-0000-0387-4385
E-mail: azimovazimbek25@gmail.com

PARTICIPATION OF NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATIONS IN THE IMPLEMENTATION OF THE SOCIAL FUNCTION OF THE STATE REGARDING YOUTH

ANNOTATION

This article provides a systematic analysis of the institutional and legal frameworks for cooperation between state bodies and non-governmental non-profit organizations (NGOs) in implementing the state's social function and guaranteeing the rights of youth, within the context of the theory of state and law. The article offers a comprehensive scientific assessment of the evolution of state youth policy in Uzbekistan, particularly the institutional and structural reforms from the "Kamolot" youth social movement to the Youth Union of Uzbekistan and the Youth Affairs Agency. Furthermore, the role and legal status of youth organizations in ensuring social stability, establishing systematic public oversight, and conducting effective social monitoring within state social policy are examined through the prism of the experiences of advanced foreign countries and national legislative norms. The author formulates significant scientific and practical conclusions aimed at elevating social partnership relations to a qualitatively new level. Specifically, substantiated legislative proposals are put forward to improve decision-making processes, based on the conceptual principle of "youth interests through the eyes of youth". These proposals include legally introducing a mechanism for mandatory public expert review of draft normative-legal acts that directly affect the lives of young people, fully digitalizing the exchange of interdepartmental socio-statistical data, and strengthening public participation.

Keywords: state youth policy, state function, social rights, NGO, social partnership, public control, institutional mechanism, Youth Affairs Agency, social monitoring, legal guarantee.

Yoshlarning ijtimoiy huquqlarini ta'minlashda davlat tashkilotlari va yoshlarga oid nodavlat notijorat tashkilotlarining hamkorligi O'zbekistonning demokratik rivojlanishi, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va yoshlar faolligini oshirishga qaratilgan davlat ijtimoiy funksiyasining ajralmas qismidir. Mamlakatimizda yoshlar siyosati davlatning ijtimoiy funksiyasi orqali samarali amalga oshirilishi, ayniqsa, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ishlar, davlat va nodavlat sektorlarining o'zaro hamkorligi bilan amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvarda qabul qilingan "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 23-sonli qarorida qayd etilishicha, O'zbekistonda bugungi kunda yoshlar masalalari va ularning manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq 830 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) va jamoat birlashmalari faoliyat yuritmoqda [1]. Mazkur tashkilotlar o'z faoliyatlari bilan yoshlarning huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda, ularni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda, shuningdek, turli ijtimoiy va madaniy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratishga katta hissa qo'shmoqda.

Masalan, "Ibrat farzandlari" xorijiy tillar ta'limini hamma uchun ochiq qilsa, "Zamin" fondi imkoniyati cheklangan yoshlar uchun ta'lim to'siqlarini olib tashlaydi. Ayni damda "Ibrat farzandlari" 13 ta til doirasida yoshlarning til o'rganish salohiyatini oshirib kelmoqda. "Ziyo Forum" ilm-fan va ta'limni

rivojlantirish fondi hamda qizlarning IT va texnologik sohalarda ta'lim olish huquqlarini ta'minlashga qaratilgan "Technovation Girls Uzbekistan" kabi yoshlarga oid nodavlat notijorat tashkilotlari bunga misol bo'la oladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlari – yoshlar bilan ishlashda muhim o'rin tutadi, chunki ular davlatning mavjud siyosatini amalga oshirishdagi faol yordamchilar sanaladi. Ular yoshlarning ta'lim olish imkoniyatlarini oshirishda, kasbiy o'sishiga, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga, shuningdek, ularga huquqiy va psixologik yordam ko'rsatishga ko'maklashadilar. Bunday tashkilotlar o'z tashabbuslari bilan yoshlar uchun treninglar, seminarlar, ma'rifiy dasturlar va ijtimoiy tadbirlar tashkil etadi, bu esa yoshlarning ijtimoiy faolligini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasida davlat organlari va NNTlar o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik prinsipini mustahkamlashni nazarda tutadi. Ijtimoiy sheriklik – bu davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari ortasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini hayotga tatbiq etish, aholi qatlamlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ijtimoiy ahamiyatga molik muammolarni birgalikda hal etishga qaratilgan huquqiy va institutsional munosabatlar majmuidir. Shu bilan birga, davlatning ijtimoiy funksiyasi orqali yoshlarning ijtimoiy huquqlarini kafolatlashda davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) o'rtasidagi hamkorlik ijtimoiy sheriklik tamoyiliga asoslanib, ijtimoiy buyurtmalar va jamoatchilik nazorati mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu hamkorlik samaradorligini oshirish va NNTlar loyihalarini raqamli tizimlarga integratsiya qilish orqali yoshlarning ijtimoiy himoyasi kafolatini kuchaytirish zarur.

"Raqamli ijtimoiy himoya nazariyasiga ko'ra, turli subyektlar (davlat organlari va NNTlar) tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarni yagona raqamli platformaga birlashtirish xizmat ko'rsatish tezligini oshiradi va byurokrtiyani kamaytiradi [2, B.12]. V.Barcaning ijtimoiy himoyani integratsiyalashgan raqamli registrlar orqali boshqarish nazariyasiga tayanib, O'zbekistonda NNTlar loyihalarini "Yoshlar daftari" kabi davlat platformalariga integratsiya qilish yoshlarning ijtimoiy himoyasini manzilli va samarali qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni va PF-87-son Farmoni ushbu jarayonning huquqiy asosini mustahkamlaydi. NNTlarning asosiy ustunligi – ularning jamiyat ichida, bevosita mahallalarda "mobil" faoliyat yurita olishi va yoshlarning muammolarini ichkaridan bilishidir. Shu sabab, yoshlar bilan ishlashda, ayniqsa, davlatning ijtimoiy funksiyasi doirasida yoshlarning huquqlarini himoya qilishda NNT o'zni salmoqli, NNTlar yoshlarning ijtimoiy tomondan davlat orqali ko'rsatilayotgan manzilli yordamlarning amalga oshirilishida beqiyos hissasini qo'shishi mumkin, mazkur hamkorlik xorij tajribasida o'z isbotini topmoqda. Yoshlar bilan ishlovchi NNTlar faoliyatini muvofiqlashtirish va qo'llab-quvvatlashda O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi hamda Oliy Majlis huzuridagi Jamoat fondi muhim rol o'ynaydi. Ushbu tashkilotlar yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni tadbirkorlikka jalb qilish va "Beshta muhim tashabbus" kabi loyihalarni amalga oshirishda davlat organlariga yaqin ko'makchi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar davlat aholisining 60 foizidan ko'pini tashkil etadi, bu esa yoshlarning mamlakat poydevori ekanligini anglatadi. Shu sababli ham, davlatning ijtimoiy funksiyasi doirasida yoshlarni birlashtirish va ularning ijtimoiy huquqlarini himoya qilish maqsadida bir qator tashkilotlar tuzilgan.

Dastlab, O'zbekiston yoshlarini birlashtirish uchun "Yoshlar ittifoqi" nodavlat notijorat tashkiloti tuzilgan bo'lib, u yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat olib bordi. Ammo, tashkilotning yoshlar manfaatlarini to'la aks ettira olmasligi va qarorlarni amalga oshirishda to'siqlar yuzaga kelgani sababli, 1996-yilda bu tashkilot tugatilib, o'rniga "Kamolot" jamg'armasi tashkil etildi. Ushbu jamg'arma yoshlarni birlashtirib, ularning ijtimoiy faoliyatini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratishi mumkinligi nazarda tutildi. 2001-yilda esa Toshkentda bo'lib o'tgan yoshlar qurultoyida "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati tashkil etildi hamda bu harakat doirasida 14 yoshdan 28 yoshgacha bo'lgan yoshlarga xizmat qildi.

2016-yilda O'zbekiston Respublikasi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunga ko'ra, 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar yoshlar deb hisoblandi. 2017-yil 30-iyunda, Shavkat Mirziyoyevning ishtirokida "Kamolot" tashkiloti tugatilib, bunga sabab sifatida mazkur tashkilotning kutilgan natijalarga erisha olmaganligi qayd etildi, uning o'rniga "O'zbekiston yoshlar ittifoqi" tashkil etildi. Hozirda mazkur tashkilot yoshlar manfaatlarini himoya qilish, ularni birlashtirish va rivojlantirish yo'lida faoliyat olib bormoqda.

Yoshlarga oid davlat siyosatini markazlashtirish maqsadida 2020-yil 30-iyunda Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Ushbu agentlik yoshlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha faoliyat ko'rsatdi va 2022-yildan boshlab, mahallalarga kirib borib, 700 mingdan ortiq yoshlarni rag'batlantirish uchun 650 milliard so'm mablag' ajratdi. Bundan ko'rishimiz mumkinki, yoshlar bilan ishlashda, ularning ijtimoiy huquqlarini kafolatlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan Agentlik hamkorlikda samarali ishlarni amalga oshirib kelmoqda. Shu bilan birga, Prezidentimiz tomonidan yoshlar uchun amalga oshirayotgan ishlari salmoqli.

Jumladan, 2025-yil 14-fevralda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-60-sonli qarori [3] asosida yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi negizida Yoshlar ishlari agentligi huzurida Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi tashkil etildi. Bundan ko'zlangan maqsad yoshlarga qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishga yo'naltirilgan tadbirkorlik loyihalarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning bandligini ta'minlash tizimini takomillashtirishdir. Mazkur jamg'arma davlat bilan hamkorlikda tuzilgan notijorat tashkiloti hisoblanadi.

Davlatning ijtimoiy funksiyasida davlat organlari va yoshlarga oid nodavlat notijorat tashkilotlari hamkorlik masalalarini o'rganish uchun tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy yondashuv va doktrinal tadqiqot usullaridan foydalanildi. Mazkur tadqiqotda ijtimoiy sheriklikning huquqiy mexanizmlari va institutsional evolyutsiyasini tahlil qilish orqali amaliy takliflarni ilmiy asoslashga qaratilgan.

Entoni Giddensning "uchinchi yo'l" konsepsiyasi orqali davlat organlari va yoshlar NNTlari o'rtasidagi hamkorlikni an'anaviy boshqaruv va mutloq bozor munosabatlari o'rtasidagi institutsional integratsiya sifatida ko'rsatadi [4, B.1-10]. Mazkur yondashuv davlatni ijtimoiy funksiyalarini NNTlar bilan bo'lishuvchi, yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi "ijtimoiy investitsiya" subyektiga aylantira oladi.

Rossiyalik olim A.Sungurov o'zining monografiyasida NNTlarining inson huquqlarini himoya qilishdagi funksiyalarini batafsil yoritib bergan. Mazkur tadqiqotda yoshlar tashkilotlarining (NNTlarning) davlat va o'sib kelayotgan avlod o'rtasidagi "ko'pri" vazifasi, ularning yoshlarga oid qonunchilikni takomillashtirishdagi faol ishtiroki hamda yoshlar huquqlarining ta'minlanishi ustidan o'rnatiladigan jamoatchilik nazoratidagi ahamiyati atroflicha yoritilgan. Muallif tomonidan NNTlarni qo'llab-quvvatlash uchun zamonaviy huquqiy mexanizmlar, mustahkam institutsional asoslar va barqaror moliyaviy tizimni yaratish ustuvor vazifa ekanligini ilgari suriladi [5, B. 36-65].

Muallifning yoshlar tashkilotlarini davlatning ijtimoiy siyosatida davlat va yoshlar o'rtasidagi vositachi sifatida ko'rsatishi juda o'rinli. Chunki davlat organlari ko'pincha yoshlarning real muammolarini (masalan, submadaniyatlar ehtiyoji yoki norasmiy bandlikdagi qiyinchiliklar) "pastdan" turib ko'ra olmaydi. Yoshlarga oid nodavlat notijorat tashkilotlari esa aynan shu muammolarni akademik va huquqiy tilga o'girib, qaror qabul qiluvchilarga yetkazib beruvchi filtrlardir.

Xalqaro tadqiqotchilar H.Anheier va S.Toepler ta'kidlashicha, notijorat tashkilotlari bugungi kunda davlat boshqaruvining uzviy bo'lagiga aylangan bo'lib, ular nafaqat ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi, balki davlatning strategik sheriklari ham hisoblanishadi [6, B.153-155]. Mazkur konseptual yondashuv yurtimizdagi yoshlar tashkilotlari va davlat organlari o'rtasidagi institutsional hamkorlikni huquqiy tartibga solishda asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, NNTlarning ta'lim, ijtimoiy himoya va bandlik sohasidagi loyihalari orqali davlatning ijtimoiy funksiyalarini samarali amalga oshirishda muhim institutsional mexanizm bo'la oladi.

“Salmon o'zining “Uchinchi sektor” nazariyasida davlat va NNTlar o'rtasidagi munosabatni “o'zaro to'ldiruvchi hamkorlik” deb ataydi. Salamon fikricha, davlat ijtimoiy xizmatlarni bevosita o'zi ko'rsatishdan ko'ra, ularni NNTlar orqali “outsorsing” qilishi samaraliroq, bu esa yoshlarning norasmiy bandligi yoki submadaniyat muammolarini hal qilishda eng to'g'ri modeldir” [7]. L.Salamon va Yu.Xabermas nazariyalari shuni isbotlaydiki, ijtimoiy davlat sharoitida NNTlar davlatning raqobatchisi emas, balki uning ijtimoiy funksiyasini “jonlantiruvchi” va “manzilli” qiluvchi strategik hamkoridir. O'zbekiston sharoitida bu hamkorlik yoshlarning yashirin ehtiyojlarini huquqiy maydonga olib chiqishning demokratik mexanizmidir. NNTlar pastda turib muammolarni tezroq payqaydi, lekin ularda barqaror moliyaviy resurs yetishmaydi, bunga yechim sifatida davlat va NNT hamkorligi orqali davlat NNTni moliyalashtiradi, NNT esa xizmatni amalga oshiradi.

Ushbu model yoshlarga oid davlat ijtimoiy funksiyasini “yuqoridan pastga” emas, balki “pastdan yuqoriga” tamoyili asosida qurishni taklif qiladi, bu esa har qanday zamonaviy jamiyat uchun eng to'g'ri yo'ldir.

Shuningdek, “L.Xamrayeva va A.Ismailov kabi tadqiqotchilar o'z ishlarida NNTlarning davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishdagi o'rni va ushbu jarayonning amaliy mexanizmlarini tahlil qilgan” [8, B.45–52.]. Mualliflar jamoatchilik nazoratining huquqiy poydevori hamda uning amalga oshirish shakllarini o'rganib, O'zbekiston amaliyotini yaxshilash bo'yicha aniq takliflar berishgan. Shu bilan birga, tadqiqotda shaxslarning huquq va erkinliklarini ta'minlashda NNTlar tomonidan o'tkaziladigan monitoring jarayonlari va ularning natijadorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan”. L.Xamrayeva va A.Ismailov tomonidan taklif etilgan mexanizmlar shuni ko'rsatadiki, NNTlar shunchaki shikoyat qiluvchi emas, balki ijtimoiy davlat konsepsiyasida ijtimoiy huquqlarni ta'minlashda tahlilchi rolini o'ynashi kerak. Ya'ni, yoshlarning necha foizi sifatli tibbiy xizmatdan foydalana olyapti yoki qancha yosh oliy ta'limdan keyin ish bilan ta'minlanyapti – bu kabi ma'lumotlarning NNTlar tomonidan yig'ilishi davlat organlari faoliyatiga nisbatan xolis baho beradi.

“E.Smit-Kannoy o'zining “Qonun ustuvorligida qat'iyatlilik: Fuqarolik jamiyati va inson huquqlari” nomli asarida insonlarning manfaatlarini himoya qiluvchi NNTlarning huquqiy tartibotni mustahkamlashdagi o'rnini tadqiq etgan. Muallif turli mamlakatlar tajribasiga tayanib, nodavlat notijorat tashkilotlarining inson huquqlarini himoya qilishni kafolatlash borasidagi faoliyati qonun ustuvorligini ta'minlash hamda tizimli huquqiy islohotlarni amalga oshirishda qanchalik muhim harakatlantiruvchi kuch ekanligini isbotlab bergan [9]. Mazkur izlanish insonlarning, shu bilan birga, yoshlarning huquqiy himoyasi sohasidagi NNTlar rolini ilmiy jihatdan anglash uchun muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Fuqarolik jamiyati institutlari tushunchasi haqida turli xil ta'riflar mavjud. Xususan, J.Lokk, A.de Tokvil “inson huquqlari va shaxs erkinligini himoya qiluvchi ixtiyoriy uyushmalar” desa, G.Hegel “shaxsiy iqtisodiy manfaatlar to'qnashadigan soha”, Patnam va Fukuyama esa “Ijtimoiy ishonch, birdamlik va ijtimoiy kapital shakllanadigan institutlar” sifatida e'tirof etishgan. Mazkur ta'riflardan kelib chiqqan holda Fuqarolik jamiyati institutlari – davlat va bozor tuzilmalaridan mustaqil ravishda, fuqarolarning ixtiyoriy tashabbuslari asosida shakllanadigan hamda inson huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy manfaatlarni ifodalash va davlat hokimiyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishga xizmat qiladigan nodavlat tuzilmalar tizimidir.

2016–2024-yillardagi huquqiy islohotlar O'zbekistonda davlat va uchinchi sektor (NNTlar) o'rtasidagi ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirib, boshqaruvning ishtirokchi va shaffof modelini shakllantirmoqda. 2025-yilgi tadqiqotlarga ko'ra, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari faoliyatiga integratsiyalashuvi ijtimoiy innovatsiyalar va siyosat hisobdorligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynadi [10, B. 354–356].

Yoshlarga oid nodavlat notijorat tashkilotlari – bu yosh avlodning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning ijtimoiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida ixtiyoriylik va o'zini o'zi boshqarish tamoyillari asosida birlashgan, tijoriy foydani ko'zlamaydigan tuzilmalardir.

Davlatning ijtimoiy funksiyasida yoshlarning huquqlarini kafolatlash masalasi ushbu tashkilotlarning o'rni quyidagi ustuvor xususiyatlar bilan belgilanadi:

1) mustaqillik: Davlat idoralaridan mustaqil faoliyat yuritishi tufayli, yoshlar o'rtasidagi huquqbuzarliklar yoki ularning huquqlari poymol etilishi holatlariga xolis baho beradi hamda davlat siyosatidagi kamchiliklarni ochiq tahlil qila oladi;

2) moslanuvchanlik: Byurokratiyadan xoli bo'lgani sababli, yoshlar hayotidagi dolzarb muammolar va trendlarga (masalan, norasmiy bandlik masalalari) tezkor munosabat bildiradi;

3) ixtisoslashuv: Muayyan yo'nalishlarda (masalan, yoshlar tadbirkorligi, intellektual mulk yoki inklyuziv ta'lim) chuqur bilim va tajribaga ega bo'lgan holda faoliyat yuritadi;

4) ijtimoiy ishonch: Yoshlar muhiti va mahalliy jamoalar bilan doimiy muloqotda bo'lishi sababli, yoshlarning haqiqiy ehtiyojlari haqida ishonchli ma'lumotlarni to'plash va tizimlashtirish imkoniga ega.

Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining huquqiy mexanizmi quyidagi normativ huquqiy hujjatlar asosida tartibga solinadi:

O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni orqali NNTlarining huquqiy maqomi, ularni tashkil etish, faoliyatini amalga oshirish va tugatish tartibi belgilangan [11]. O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni [12] esa NNTlari tomonidan davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish mexanizmlarini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonunida NNTlari va davlat organlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik nazariyasida hamkorlik shakllari va mexanizmlari tartibga solinadi [13].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlarning ijtimoiy manfaatlarini ta'minlashda NNTlar va davlat tuzilmalari o'rtasidagi sheriklikni yangi bosqichga olib chiqish uchun quyidagi kompleks qonunchilik tashabbusini amalga oshirish taklif etiladi:

- Yoshlarga oid davlat ijtimoiy funksiyasini amalga oshirishga daxldor barcha davlat dasturlari va qonun loyihalarini yoshlar tashkilotlari tomonidan majburiy ekspertizadan o'tkazish tizimini joriy etish;

- Mavjud qonun hujjatlariga yoshlar tashkilotlarining ijtimoiy monitoring, ya'ni ijtimoiy sohadagi real holatni aniqlash, qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish va davlat qarorlarini takomillashtirish uchun tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan maqsadli ijtimoiy-tahliliy faoliyat o'tkazish vakolatlarini kengaytiruvchi o'zgartirishlar kiritish;

- Yoshlarning ijtimoiy huquqlarini himoya qilishda NNTlar ishtirokining o'ziga xos xususiyatlarini (masalan, yosh ko'ngillilar harakati, ijtimoiy tadbirkorlik) hisobga oluvchi yangi huquqiy asoslarni ishlab chiqish;

Bu kabi choralar yoshlar tashkilotlarining ijtimoiy muammolarga tezkor munosabat bildirish qobiliyatini oshiradi va yoshlarning davlat ijtimoiy funksiyasidagi ishtirokini real shaklga keltiradi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda davlat ijtimoiy funksiyasini amalga oshirishda (xususan, ta'lim, bandlik, ijtimoiy himoyada) yoshlar tashkilotlarining o'rni va nufuzi ortib bormoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 20-aprelda qabul qilingan PQ-148-son "Yangi O'zbekiston yoshlari – 2030" strategiyasini 2026-2027-yillarda amalga oshirish hamda yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida yoshlar NNTlarini rivojlantirish hamda 20 ming nafar yoshlarni nodavlat qo'shimcha ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi subyektlar bilan hamkorlikda zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha "Kelajak kasblari" dasturini yo'lga qo'yish belgilangan [14].

Mamlakatimizda 10 mingdan ziyod NNT faoliyat yuritayotgan bo'lib, ularning 830 dan ortig'i bevosita yoshlarning huquqiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilishga ixtisoslashgan. Ushbu statistik ma'lumot 9,5 million yoshlar uchun yetarli emas. Yoshlar tashkilotlarini sonini oshirish dolzarb masalaligicha qolmoqda.

O'zbekistonda NNTlari faoliyatida quyidagi muammolar mavjud [15, B.56-67]:

- yoshlar tashkilotlarining ko'pchiligi barqaror moliyalashtirish manbalariga ega emasligi sababli, yoshlarning bandligi yoki ta'limini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan uzoq muddatli ijtimoiy loyihalarni to'liq amalga oshira olmaydi;

- yoshlar NNTlarida yoshlarning ijtimoiy-huquqiy masalalari (masalan, mehnat huquqi, inkluziv ta'lim) bo'yicha chuqur bilim va xalqaro tajribaga ega bo'lgan mutaxassislarining yetishmasligi tizimli tahlillarni amalga oshirishga xalaqit bermoqda;

– ayrim hududlarda yoshlar tashkilotlari va davlat idoralari o'rtasida rasmiyatchilik saqlanib qolayotgani, o'zaro ishonchning pastligi ijtimoiy huquqlarni himoya qilishda samarali hamkorlik mexanizmlari (masalan, ijtimoiy buyurtma) to'liq ishlashiga yo'l bermayapti;

– yoshlar manfaatlarini himoya qiluvchi tashkilotlarning huquq ijodkorligi va monitoring jarayonlaridagi ishtirokini tartibga soluvchi qonunchilikda hali ham noaniqliklar va ijtimoiy nazorat vakolatlarini cheklovchi normalar mavjud.

– yoshlar tashkilotlari uchun davlat grantlari va subsidiyalari ajratish tizimini shaffoflashtirish, shuningdek, yoshlar tadbirkorligi va ijtimoiy loyihalarini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy sektor (homiylilik) va xalqaro donorlar mablag'larini jalb qilishning sodda mexanizmlarini yaratish masalasi.

– ijtimoiy sheriklikni strategik darajaga ko'tarish masalasida "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun imkoniyatlaridan to'liq foydalangan holda, yoshlar tashkilotlari va davlat idoralari o'rtasida doimiy faoliyat yurituvchi muloqot platformalarini (masalan, "Yoshlar forumlari" yoki "Muvofiqlashtiruvchi kengashlar") tashkil etish.

– monitoring va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonun doirasida yoshlar tashkilotlariga yoshlarning ijtimoiy himoyasi, bandligi va ta'lim sifatini mustaqil monitoring qilish hamda davlat dasturlari ijrosini baholash bo'yicha kengroq huquqiy vakolatlar berish.

– "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunni yoshlar tashkilotlarining o'ziga xosligini (tezkorlik, innovatsiyaga moyillik) hisobga olib takomillashtirish, ayniqsa, xorijiy innovatsion ta'lim dasturlari uchun mablag' olish tartibini maksimal darajada soddalashtirish.

– yoshlar sektorida faoliyat yuritayotgan yetakchilar uchun inson huquqlari va ijtimoiy menejment bo'yicha maxsus malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish, shuningdek, oliy ta'lim tizimida "Yoshlar bilan ishlash va NNT menejmenti" yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlashni kengaytirish.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki, davlat ijtimoiy funksiyasining obyekti sifatida yoshlarning ijtimoiy huquqlarini kafolatlashda nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolik jamiyatining muhim instituti sifatida alohida o'rin tutadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, NNTlarining davlat ijtimoiy funksiyasida yoshlarning huquqlarini kafolatlashdagi faoliyati ko'p qirrali bo'lib, monitoring o'tkazish, huquqiy yordam ko'rsatish, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, manzilli ijtimoiy yordamni ko'rsatish, jamoatchilik nazoratini amalga oshirish kabi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi. NNTlarining yoshlarga oid davlat siyosatidagi o'rni ularning davlat organlaridan mustaqilligi, moslashuvchanligi, ixtisoslashuvi va jamoatchilik ishonchiga ega ekanligi kabi xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu xususiyatlar ularga yoshlarning huquq va qonuniy manfaatlarini buzilish holatlari to'g'risida xolis ma'lumot berish, davlat organlari faoliyatini tanqidiy baholash, huquq va erkinliklarni himoya qilishda yoshlarga yordam berish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, NNTlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, yoshlar davlatning kelajak uchun poydevori bo'lib shakllanishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat ijtimoiy funksiyasini amalga oshirishda NNTlari ishtirokining huquqiy asoslari milliy qonunchilik va xalqaro-huquqiy hujjatlarda mustahkamlangan. So'nggi yillarda O'zbekistonda NNTlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan islohotlar ularning yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi faoliyatini yanada faollashtirish imkonini berdi. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish strategiyasi doirasida NNTlarining rolini oshirish, ularning davlat organlari bilan hamkorligini kuchaytirish va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Biroq tadqiqot natijalarida aniqlangan moliyaviy resurslar va malakali kadrlar yetishmasligi, davlat organlari bilan hamkorlik mexanizmlarining mukammal emasligi, huquqiy bazaning ayrim kamchiliklari kabi muammolar NNTlarining davlat ijtimoiy funksiyasida yoshlar sohasidagi faoliyatining samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish uchun qonunchilikka prinsipial o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zarur.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi va "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar

kiritish orqali NNTlari va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish, yoshlarning ijtimoiy huquqlarini kafolatlash sohasida NNTlarining vakolatlarini kengaytirish va ularning davlat qarorlarini qabul qilish jarayonidagi ishtirokini ta'minlash lozim. Qonunchilikdagi prinsipial o'zgarishlar davlatning ijtimoiy funksiyasini amalga oshirish mexanizmda NNTlari faoliyatining huquqiy kafolatlarini mustahkamlash, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va xalqaro hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish uchun asos bo'ladi. Bundan tashqari, NNTlari va davlat organlari o'rtasidagi ijtimoiy sheriklik prinsipini yanada rivojlantirish uchun quyidagi amaliy chora-tadbirlarni ham amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- yoshlarning ijtimoiy huquqlarini kafolatlash bo'yicha davlat organlari qoshida NNTlari ishtirokidagi doimiy faoliyat yurituvchi jamoatchilik – maslahat kengashlarini tashkil etish va ularning samarali ishlashini ta'minlash;

- yoshlarga oid NNTlarining yoshlarning ijtimoiy huquqlarini kafolatlashda monitoringini o'tkazish natijalari bo'yicha milliy va xalqaro hisobotlarni tayyorlash jarayonida ishtirokini kengaytirish;

- davlatning ijtimoiy funksiyasida yoshlarning huquqlarini ta'minlashga qaratilgan qonun loyihalarini ishlab chiqish va muhokama qilishda yoshlarga oid NNTlarining ishtirokini ta'minlash uchun ochiq platformalar yaratish;

- yoshlarga oid davlat siyosati sohasida faoliyat yuritayotgan NNTlari uchun maqsadli grant va subsidiyalar ajratish tizimini joriy etish;

- NNTlari va davlat organlari vakillari uchun davlatning ijtimoiy funksiyasi doirasida yoshlarning huquqlarini kafolatlash samaradorligini oshirishga qaratilgan qo'shma o'quv dasturlarini tashkil etish.

Notijorat tashkilotlari boshqaruvi bo'yicha tadqiqotchilarning fikricha, zamonaviy NNTlar nafaqat xizmat ko'rsatuvchi, balki jamiyatda adolat, tenglik va inklyuzivlikni ta'minlovchi institutsional tuzilmalardir [16, B.210-220].

O'zbekistondagi so'nggi islohotlar NNTlar faoliyatini raqamlashtirish va ularning shaffofligini ta'minlashga qaratilgan. Xususan, joriy etilgan "NNTlarning ochiqlik indeksi" va uning natijalari asosida shakllantiriladigan "eng faol 20 ta tashkilot" reytingi ijtimoiy sheriklik subyektlarini saralab olishda muhim o'rin tutadi [17, B.124]. Mazkur tizim doirasida beriladigan vaucher va sertifikatlar yoshlar tashkilotlarining davlat grantlari uchun kurashishda qo'shimcha imtiyozlarga ega bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi, o'z navbatida, bu "yoshlar manfaati yoshlar nigohi bilan" tamoyilining amaliy ijrosini kafolatlovchi raqamli monitoring tizimini yaratishi mumkin.

Shuningdek, Yoshlarga oid davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda NNTlari ishtirokini kengaytirish va ularning faoliyatini samarali tashkil etish orqali O'zbekistonda davlatning ijtimoiy funksiyasi prizmasida yoshlarning huquqlarini himoya qilishni yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Bu jarayonda davlat va nodavlat sektorining kuch va imkoniyatlarini birlashtirish, ularning o'zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan munosabatlarini rivojlantirish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, yoshlarning ijtimoiy huquqlarini kafolatlashda NNTlar faoliyatini takomillashtirish nafaqat fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, balki butun mamlakatda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barkamol bo'lib yetishishiga zamin yaratadi, qonun ustuvorligini ta'minlash va demokratik qadriyatlarni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonning xalqaro maydonda nufuzini oshirish, investitsion jozibadorligini kuchaytirish va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR/CHOCKI/REFERENCES:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvarda qabul qilingan "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 23-sonli qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2024-y., 09/24/833/1016-son. <https://lex.uz/ru/docs/-5234746>

2. Giddens, A. (2013, May) *The Third Way: The Renewal of Social Democracy*. Cambridge: Polity Press. 176 p. https://www.politybooks.com/bookdetail?book_slug=the-third-way-the-renewal-of-social-democracy--9780745622675

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevralda qabul qilingan "Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-60-sonli qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.02.2025-y., 07/25/60/0150-son; 13.02.2026-y., 07/25/59/0135-son <https://lex.uz/docs/-7386867>
4. Barca, V. (2017) Integrating data and information management for social protection: social registries and integrated beneficiary registries. Canberra: Commonwealth of Australia. <https://www.dfat.gov.au/sites/default/files/integrating-data-information-management-social-protection-full.pdf>
5. Anheier, H.K. and Toepler, S. (2022, August 22) *Nonprofit Organizations: Theory, Management, Policy*. London: Routledge. 622 p. <https://www.routledge.com/Nonprofit-Organizations-Theory-Management-Policy/Anheier-Toepler/p/book/9781138625495>
6. Sungurov, A. (2017) Grazhdanskoe obshchestvo i ego razvitiye v Rossii [Civil Society and its Development in Russia]. St. Petersburg: Legal Center Publ. https://www.civisbook.ru/files/File/Sungurov_struktury.pdf
7. Salamon, L. M. (1995) *Partners in public service: Government-nonprofit relations in the modern welfare state*. Baltimore: Johns Hopkins University Press. <https://www.press.jhu.edu/books/title/2110/partners-public-service?srsId=AfmBOorH4Bih5wgGjHJg8Zwb3kiekWiBNGWFCiizjgzyMyLetapYNO>
8. Xamayeva, L. and Ismailov, A. (2021) 'Nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdagi roli [The Role of Non-governmental Non-profit Organizations in Implementing Public Control]', *Lawyer's Bulletin*, 3(2), pp. 45–52. https://inlibrary.uz/#google_vignette
9. Smith-Cannoy, H. (2012) *Insisting on the Rule of Law: Civil Society and Human Rights*. Philadelphia: University of Pennsylvania Press. <https://press.georgetown.edu/Book/Sex-Trafficking-and-Human-Rights>
10. Kamalov, S. (2025) *The Role of Social Partnership in Public Governance: The Place of the "Third Sector" in Uzbekistan*. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(10), pp. 354-359. <https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/5188>
11. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.08.2025-y., 03/25/1083/0769-son <https://lex.uz/uz/docs/-11360>
12. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi O'RQ-474-sonli qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 22.08.2025-y., 03/25/1083/0769-son <https://lex.uz/uz/docs/-3679092>
13. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 25-sentyabrda qabul qilingan "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi O'RQ-376-sonli qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 22.08.2025-y., 03/25/1083/0769-son <https://lex.uz/docs/-2468214>
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 20-aprelda qabul qilingan PQ-148-son "Yangi O'zbekiston yoshlari-2030" strategiyasini 2026-2027-yillarda amalga oshirish hamda yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.04.2026-y., 07/26/148/0405-son. <https://lex.uz/uz/docs/-8154679?query=nazorat>
15. Qodirov E. O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish masalalari [Issues of Improving Legislation Regulating the Activities of Non-governmental Non-profit Organizations in Uzbekistan]. *Bulletin of Legal Sciences*, 2022, vol. 2(1), pp. 56–67. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/92744>
16. Dicke, L.A. and Ott, J.S. (eds) (2023) *Understanding Nonprofit Organizations: Governance, Leadership, and Management*. 4th edn. New York: Routledge. 414 p. <https://www.routledge.com/Understanding-Nonprofit-Organizations-Governance-Leadership-and-Management/Dicke-Ott/p/book/9781032471259>
17. Tulyakov, E. (2020) *Civil Society Reforms in Uzbekistan*. Development Strategy Center Journal, 2, pp. 121–125. https://www.researchgate.net/publication/352127003_Civil_Society_Reforms_in_Uzbekistan

YURIST AXBOROTNOMASI
4-SON

ВЕСТНИК ЮРИСТА
НОМЕР 4

LAWYER HERALD
ISSUE 4

ISSN 2181-9416
DOI JURNAL: 10.34920/2181-9416/2026/4
2026-YIL